



SURXON VOHASI AN'ANAVIY XALQ O'YINLARI

S.Qurbonov

TerDU katta o'qituvchisi, dotsent v/b
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8191406>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-July 2023 yil
Ma'qullandi: 25-July 2023 yil
Nashr qilindi: 28-July 2023 yil

KEY WORDS

Surxon vohasi an'anaviy o'yinlari kelajak avlod uchun zaruriy tarbiya vositasi hisoblanib, uni ilmiy va amaliy jihatdan hayotga tadbiq etish kelajak avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda bosh masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

ABSTRACT

Surxon vohasida uzoq tarixiy jarayonlar bilan bir qatorda Machay, Zarautsoy kabi madaniyat manzilgohlari, ilk shahar, davlat bo'lgan Sopollitepa, Jarqo'ton kabilarning mavjud bo'lganligi barobarida o'sha davrga xos an'anaviy o'yinlari ham shakllanib kelganligidan arxeolog olimlarimiz olib borayotgan qazilmalari va ikvby tadqiqotlari guvohlik beradi. Bu an'anaviy o'yinlar ming yillar davomida ijtimoiy hayot tarzi bilan mushtarak holda shakllanib, ommalashib o'z rivojini topib kelgan

Surxon vohasida uzoq tarixiy jarayonlar bilan bir qatorda Machay, Zarautsoy kabi madaniyat manzilgohlari, ilk shahar, davlat bo'lgan Sopollitepa, Jarqo'ton kabilarning mavjud bo'lganligi barobarida o'sha davrga xos an'anaviy o'yinlari ham shakllanib kelganligidan arxeolog olimlarimiz olib borayotgan qazilmalari va ikvby tadqiqotlari guvohlik beradi. Bu an'anaviy o'yinlar ming yillar davomida ijtimoiy hayot tarzi bilan mushtarak holda shakllanib, ommalashib o'z rivojini topib kelgan. Ushbu an'anaviy o'yinlar voha xalqiga tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, kelajak avlod hisoblanmish yoshlarni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash hamda ko'plab polvonlar, botirlar yetishib chiqishida muhim o'rin tutib kelgan. Shu bois ham ota-bobolarimiz yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda ushbu an'anaviy o'yinlardan unumli foydalanib kelishgan.

Surxon vohasi an'anaviy o'yinlari kelajak avlod uchun zaruriy tarbiya vositasi hisoblanib, uni ilmiy va amaliy jihatdan hayotga tadbiq etish kelajak avlodni barkamol qilib voyaga yetkazishda bosh masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z ma'ruzasida "Oldimizda mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab, sharaflil vazifa turgan paytda bu ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati ming karra ortadi. Nega deganda har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish avvalo shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak avlodga bog'liqdir. Shu boisdan ham hozirgi kunda xalqimiz, farzandlarimiz iqbolini o'ylab qattiq bel bog'lab mehnat qilayotgan mas'uliyatli bir davrda mazkur tushunchalar yanada teran ma'no

kasb etadi.” – degan ibratli soʻzlari muhim ahamiyatga egadir.

Shu bois xalq oʻyinlarini keng hajmda jamlash va amaliy jihatdan yuksak natijalarga erishish bugungi kunda juda muhimdir.

Oʻzbek anʼanaviy xalq oʻyinlarining tarbiyaviy ahamiyati toʻgʻrisida Maxmud Qoshqariy, Alisher Navoiy, Zahridin Muhammad Bobur, Sadridin Ayniy, Abdulla Qahhor, Oybek, Oʻtkir Hoshimov, Shukur Xolmirzaev va boshqa adiblar asarlarida ham alohida eʼtibor bilan qaralgan. Etnograflardan K. Shoniyozov, I. Jabborov, T. Jahongirov, Toʻra Mirzaev, A. Vasilev, M. S. Andreevlar anʼanaviy oʻyinlar yuzasidan oʻzlarining koʻplab ilmiy maqolalarida yoritib berganlar. Lekin, Surxon vohasi anʼanaviy xalq oʻyinlarini mukammal ravishda ilmiy taqdiq etish hamda tarixiy etnografik ishlarda toʻliq oʻz aksini topishi bugungi kunning bosh masalalaridan biridir. Koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borgan Karl Gross xalq oʻyinlarini toʻrt asosiy guruqlarga boʻlib, “Jangovar”, “Ishqiy”, “Taqlidiy” va “Ijtimoiy” oʻyinlarga ajratadi. Alis Gromm esa ikkita asosiy guruhga ajratib, drammatik, chaqqonlik va muvaffaqiyat asosida vujudga kelgan oʻyinlarga va kichik guruhchalarga boʻladi.

Surxon vohasi anʼanaviy xalq oʻyinlarini uchta katta guruhga boʻlish mumkin. Bularga:

1. Biror predmet asosida oʻynaladigan oʻyinlar. “Oqsuyak”, “Chillak”, “Argʻimchoq”.
2. Predmetlarsiz oʻynaladigan oʻyinlar. “Bekimmachoq”, “Chirkash”, “Oq terakmi–koʻk terak” va h.k.
3. Oʻrtada biror shart qoʻyib oʻynaladigan oʻyinlardan “Koʻpkari”, “Chavqi” va boshqa oʻyinlardir.

Bu xalq oʻyinlarining asosiy jihati shundan iboratki, qish fasli oʻtib bahor fasli, ayrimlarigina yil davomida oʻynaladi. Ushbu oʻyinlar toʻgʻrisida oʻrta asr manbalarida ham taʼkidlab oʻtilgan.

Surxon vohasi anʼanaviy oʻyinlari qoidalarida oʻyinlar sanoq jihatdan koʻpchilikni tashkil etadi. Bu oʻyinlarning barchasi kishilarni, ayniqsa bolalarni jismonan chiniqtirishda, ularni sergak, qoʻrqmas boʻlishiga, aqliy rivojlantirish tez fikrlash, topqirlik va zukkolikka oʻrgatishda oʻziga xos tarbiya vositasi hisoblanadi.

Surxon anʼanaviy xalq oʻyinlaridan biri “Chirkash” oʻyini boʻlib, yoshlarni epchil va chaqqon boʻlishida samaralidir. Bolalar oʻrtaga olti - sakkiztadan ikki guruhga boʻlinib, maslahat qilgan holda bir guruh qochadi, ikkinchi guruh quvlaydilar. Bunda quvayotgan bolalar raqib guruhidagi bolalarga yetib olib, biron joyiga oyogʻini tekkizishi lozim. Bunda qochayotgan bolalardan 5-6 tasiga oyogʻini tekkizsa gʻolib hisoblanadi. Agar qochayotgan bolalardan biri chaqqonlik qilib, quvib kelayotgan bolalarning oʻrtasidan kesib oʻtsa, orqa tomondan quvib kelayotgan bolalar asir tushgan hisoblanib oʻyindan chiqadi. Qolganlari esa oʻyinni davom ettiradi.

Surxon vohasi anʼanaviy xalq oʻyinlaridan yana biri “Oqsuyak” deb ataladigan oʻyindir. Bu oʻyin mazmuni qorongʻu tunda qoʻrqmas, tez ilgʻab oladigan hamda chaqqon boʻlishda samarali tarbiyaviy vosita boʻlib hisoblanadi. Oʻyin oy chiqqanda, tunda oʻynaladi. Bunda bolalar ikki guruhga boʻlinib har bir guruhda oʻn ikkitadan bola boʻladi. Oʻyin boshlanishida ilik - suyak qorongʻulikqa qarab uloqtiriladi. Suyakni topgan bola “topdim” deb baqirishi shart. Shundan soʻng suyakni olib poyga joyga qarab chopadi. Agar raqib guruhdagi bolalar yetib kelib qochishga iloji boʻlmay qolsa, bola suyakni yana uzoqqa qarata uloqtiradi. Qqaysi guruhdagi bola suyakni poyga joyiga olib kelsa, oʻsha guruh gʻolib hisoblanadi va oʻyin shu tarzda davom etadi.

Surxon an'anaviy xalq o'yinlaridan yana biri "Irbaydi" o'yinidir. Bu o'yin bolalarda jismoniy chaqqonlikni shakllantirishda muqim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu o'yinda bolalar beshtadan o'n beshtagacha bo'lib o'rtacha bolalarning bittasi kalapo'shni (surxon voqasiga xos bosh kiyim) tikadi va bolalarga kalapo'shni teptirmaslik uchun qo'riqlaydi.

O'yin jarayonida kalapo'shni tepishga kelgan bolaga kalapo'shni qo'riqlayotgan bola oyog'ini tekkizsa shu bola uning o'rniga kalapo'shini tikishga majbur. Bolalar qo'riqchi bolaning oyog'ini o'zlariga tekkizmay kalapo'shni o'rtadan tepib olib ketsa, to kalapo'shning egasi yetib borib, kalapo'shni o'rtadan olguncha tepib olib ketaveradilar. U bola kalapo'shni tepki ostidan olib, yana o'rtaga kalapo'shni tikib qo'riqlaydi. O'yin shu ko'rinishda davom etaveradi.

Chidamlilik, chaqqonlik, epchillik kabi xususiyatlarni shakllantirishda "Boboltaka" o'yinining ham o'rni bor. Bu o'yinda bolalar ikki guruhga o'n-o'n ikki kishidan bo'lib, hammasi qur ya'ni, davra bo'lib turishadi. Shunda davraga ikki guruhdan bir kishidan chiqishadi. Birinchi chiqqan bola "Boboltaka", ikkinchi guruhdan chiqqan bola "Chibich" deb atalib, boboltaka davrada bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchi oyog'i bilan sakrab Chibichni davra aylantirib bir oyoqlab quvib yetishi hamda ko'tarib yurgan oyog'ini Chibichga tekkizishi kerak. Boboltaka ko'tarib yurgan oyog'ini yerga tekkizsa mag'lub bo'lgan hisoblanadi. Yerga tekkizmay Chibichga oyog'ini tekkizsa g'alaba qilgan hisoblanadi. O'yin shu tarzda davom ettiriladi.

Bolalarda sezgirlik, hushyorlik, topqirlik, fahm-farosatlilik, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik kabi o'ziga xos bo'lgan an'anaviy xalq o'yinlar o'zbek xalqining bir necha ming yillik hayot tarzining ijodiy mahsuli bo'lib kelgan. Shuning uchun ushbu an'anaviy o'yinlar tarbiya vositasi sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda milliy an'analarimizni faol darajada davom ettirish, milliy-ma'naviy merosimizni zamonaviy talqinda boyitib, asl tarbiya vositasiga aylantirish bilan birgalikda Surxon etno-folklori durdonalaridan bo'lgan an'anaviy xalq o'yinlarini yoshlar tarbiyasida qo'llash, ularning aql-idroki, did-farosati, tafakkurini o'stirish, jismonan chiniqtirish va yoshlarni komil inson darajasiga ko'tarish bugungi kunda ta'lim tizimi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar". T.,2000.
2. I.Jabborov "O'zbek xalq etnografiyasi". T., 1994.
3. Sh.Galiev "O'zbek bolalar o'yin folklori". T., 1998.
4. S.Tursunov "O'zbekiston tarixi va madaniyati". T., 2004.